

2025-yil, may 10-son



ISSN 2021-9752

Til va adabiyot.uz

ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL
НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

«Til va adabiyot – Преподавание языка и литературы – Language and literature teaching» (e-mail: tilvaadabiyotuz@gmail.com) <https://oak.uz/pages/4802>

**Maktabgacha va maktab
ta'limi vaziri
HILOLA UMAROVA:**

*...Bugun chalinadigan
so'nggi qo'ng'iroq sadolari
bir umrga yuragingizdan
joy olishiga ishonaman.
Uning jarangdor sadolari
hamisha beg'ubor yoshlik
va o'quvchilik davringizni
yodga solib turishi
shubhasiz.*





DOLZARB MAVZU

Barnoxon SHAMSIYEVA,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, PhD

TARJIMADA ADAPTATSIYAGA MUROJAAT

Annotatsiya: adaptatsiya tushunchasi keng qamrovli bo'lib, olimlar unga turli ta'riflar berib, unga nisbatan munosabatlarini bildirib o'tganlar. Ushbu maqolada adaptatsiyaning usullari, tarjimonning qanday vaziyatda unga murojaat qilishi haqida Nasume Sosekining "Qalb" asaridan olingan misollar asosida tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar: *adaptatsiya, konkretizatsiya, generalizatsiya, tushirib qoldirish, qo'shish.*

Аннотация: понятие адаптации является многогранным, и различные учёные давали ему свои определения и выражали к нему своё отношение. В данной статье анализируются методы адаптации и рассматриваются случаи, в которых переводчик прибегает к ним. Анализ проводится на основе примеров из произведения Нацумэ Сосэки «Кокоро».

Ключевые слова: *адаптация, конкретизация, генерализация, опущение, добавление.*

Annotation: the concept of adaptation is broad, with various scholars offering different definitions and perspectives on it. This article analyzes adaptation methods and examines the situations in which a translator resorts to them. The analysis is based on examples from Natsume Soseki's novel *Kokoro*.

Key words: *adaptation, concretization, generalization, omission, addition.*

XX asr tarjimashunoslik olimlari aksariyatining asarlarida adaptatsiya tushunchasi o'rganilishi nisbatan kam uchratiladi. Ya'ni uncha "jiddiy" o'rganishga loyiq bo'lmagan tarjima usuli sifatida yondashilib, ta'riflarda biroz salbiy konnotatsiyaga ega bo'lgani kuzatiladi. Masalan, A.V.Fedorov [Fedorov:2002,15] tarjimini asliga to'la mos kelishi va to'liq tarjima qilish kerakligini ta'kidlaydi va qayta ishlash (peredelka), qayta hikoya qilish (pereskaz), qisqartirilgan bayon (sokращennaya izlojeniya) kabi "adaptatsiya"lardan qochish kerakligini ta'kidlaydi va adaptatsiyani tarjima sifatida qabul qilmaydi. Uning o'rniga "pereskaz" (qayta aytib berish) terminidan foydalanib, u ham tarjima haqidagi yuqoridagi fikrlarga ergashadi. Shu davr olimlarining adaptatsiya masalasiga e'tiborsizligini V.V.Demeskaya o'z ilmiy asarlarida sovet klassik tarjimashunosligida adaptatsiya tushunchasiga go'yo "o'gay qiz"ga nisbatan munosabat bo'lganini ta'kidlaydi [Demetskaya: url].

O'zbek sovet tarjimashunosligida ham adaptatsiya masalasi alohida maqola, monografiyalar bilan yoritilmagan. G'.Salomovning "Tarjima nazariyasi asoslari" nomli o'quv qo'llanmasida "moslashtirish" so'zi bir necha bor uchraydi, biroq mavzuda "uslubiy moslashtirish" haqida so'z borib, "uslubiy moslashtirish yoki taqlidda muayyan janr, ijtimoiy muhit, davr va boshqalarga xos bo'lgan naql yoki nutq uslubiga taqlid, o'xshatma yoki monandlik tarzi tushuniladi" [Salomov:1983,63] deb, moslashtirish deganda tarjimonning manba asar avtoriga taqlidi deb bayon qilingan. 1980- yilda nashr etilgan "Tarjima san'ati" nomli maqolalar to'plamida Yo.Is'hoqovning "Zullisonaynlik va tarjima" nomli maqolasida "adaptatsiya" termini bir marotaba uchraydi. Unda "bir til asosida shakllangan tasvir uslubini ikkinchi bir til qonuniyatlari asosida qayta tahrir qilish, unga sayqal berish protsessi amalga oshiriladi. Boshqacha qilib aytganda, uslubda milliy adaptatsiya hodisasi ro'y beradi" [Is'hoqov:1980] deb uslubga ta'rif berilgan bo'lsa-

da, biroq "adaptatsiya" tushunchasi pragmatik nuqtayi nazardan yoritilgani ko'rinadi.

Adaptatsiya masalasiga V.N.Komissarov o'z asarida jiddiy yondashib, adaptatsiyani ikkiga: uslubiy (stilistik) adaptatsiya hamda pragmatik adaptatsiyaga bo'lib ko'rib chiqadi. Pragmatik adaptatsiya V.N.Komissarovning ta'rificha, "tarjima retseptori uchun ta'sir qilib kommunikativ effektini saqlash maqsadida amalga oshiriladigan tarjima usuli"dir [Komissarov:1990, 221]. N.Garbovskiy ham "tarjima matnida asl matnga teng kommunikativ ta'sirga erishishni maqsad qilgan pragmatik shartli o'zgarishlarga" [Garbovskiy:2007,404] adaptatsiya deb ta'rif beradi. Va uning fikricha, adaptatsiyaga ehtiyohtkorlik bilan murojaat qilish darkor.

Keyinroq fransuz olimi J.Bastin adaptatsiyani matnlar asosida o'rganib, ularni taqqoslab, adaptatsiyani amalga oshirish yo'llari (usullari), tarjimonning ushbu usulga qaror qilish shartlari, uning chegaralari ro'yxatini ishlab chiqdi. Ularni quyidagicha tasnifladi:

- asl nusxaning transkripsiyasi: matnning bir qismini so'zma-so'z takrorlash;
- tushirib qoldirish: matnning bir qismini qisqartirish yoki olib tashlash;
- kengaytirish: tarjima matnining asosiy qismiga yoki iqtibos, izohlarda asl matn ma'nosiga qo'shimcha qilish (eksplikatsiya);
- ekzotizatsiya: asl matndagi ekzotizm jargonlari, sheva, bema'ni so'zlar va boshqalarni tarjima tilida qo'pol ekvivalentlar bilan almashtirish (ba'zan kursiv bilan yoki tagiga chizib beriladi);
- zamonaviylashtirish: eskirgan yoki tushunarsiz so'zlarni zamonaviy ekvivalentlar bilan almashtirish;
- situatsion yoki madaniy adekvatlik: asl matnda ishlatilgan so'zni tarjima o'quvchisiga tanish yoki madaniy kontekstga almashtirish;
- yaratish: asl nusxaning asosiy xabari, g'oyasi yoki funksiyasini saqlaydigan qayta matn yaratish [Bastin: 2005].

Tahlil qilinayotgan “Qalb” asari va uning tarjimalarida uchragan ba’zi misollardan 寺 [tera] “ibodatxona” so’zi bo’lib, tarjima matnida “*budda ibodatxonasi*” deb eksplikatsiya usulidan foydalanib tarjima qilingan. Chunki, Yaponiyada sintoizmga oid ibodatxona ham mavjud bo’lib, ularni farqlash tarjima matnida muhim. 琴 [koto] realiyasi ham “*koto musiqa asbobi*” deb, 上野 [ueno] joy nomi “*Ueno bog’i*” sifatida izohlanib tarjima qilingan. Demak, adaptatsiyaning eksplikatsiya usuli, xususan, milliy xos so’zlarni tarjima matni o’quvchisiga yanada tushunarliroq ifoda qilish uchun qo’llaniladi.

Tadqiqot uchun manba sifatida tanlangan asardan misol qilib keltiradigan bo’lsak, ayolning turmush o’rtog’ini 「あなた、あなた」という奥さんの声が二度聞こえた。[anata, anata] to iu okusanno koe ga nido kikoeta] (so’zma-so’z tarjima: “sen, sen” degan ayolning ovozi ikki marta eshitildi.) deb murojaat qilib chaqirishini o’zbek tiliga qilingan tarjimada “*ayoli uni ikki marta chaqirdi*” deb berilgan. Chunki, あなた [anata] o’zbek tilida “sen” degan ma’noni anglatib, bunday murojaat usuli o’zbek millati madaniyatida mavjud emasligi, erga nisbatan “sen” deb murojaat qilinmasligi yuzasidan, tarjimada kommunikativ effektini saqlab qolish maqsadida tarjimon asl matndagi 「あなた、あなた」[anata, anata] murojaat so’zini tushirib, qahramonning ikki marta chaqirilganini bergan.

Asliyatdagi so’z, birikmani tarjima matniga aniqroq, lo’nda qilib berish adaptatsiyaning konkretizatsiya usuliga xos. Misol sifatida しゃくやく場だけのそばにある古びた縁台 [shakuyaku ba dake no sobani aru furubita endai] so’zini bersak, o’zbek tiliga “piyongul dalasining yonginasidagi eskirgan o’rindiqli” jumlasini tarjima matnida konkretizatsiya shaklida “*uvat chetidagi eski o’rindiqli*” sifatida berilganda tarjima matni madaniyat transferi sifatida namoyon bo’ladi.

Yuqoridagi misollar V.Komissarov tomonidan ko’rsatib o’tilgan adaptatsiya usullari bo’lib, tadqiqot davomida tarjima matni madaniyat transferi sifatida namoyon bo’lishida yana ikkita usulning ham o’rni mavjud ekanligi aniqlandi. Bular, almashtirish (zamena) hamda qo’shish (dobavlenie) usullaridir.

Tahlilga tortilgan “Qalb” asarida uchragan misollardan birini namuna sifatida ko’rsatadigan bo’lsak, matnda 森や田の中に [mori ya ta no nakani] jumlasini bilan qishloq tasvirlanadi. Asliyatda qishloq tasviri “dala (asosan,

guruch dalasi nazarda tutiladi) va o’rmon ichida” misolida berilgan bo’lsa, tarjima matnida “*dala va tog’lar etagida*” deb berilgan. Ya’ni, o’zbek kitobxonida o’rmon tasavvuri boy emasligi hamda qishloq tasavvuri dala va tog’, qiradirlar bilan bog’liqligi yuzasidan tarjimon bu yerda almashtirish usulidan foydalangan.

Tarjimon ushbu so’zlarni to’g’ridan to’g’ri tarjima qilganda, madaniyatga xos bo’lgan so’zlarning ekvivalenti asl matndagi so’z ma’nosini berkitishi yoki umuman tushirib qoldirishi mumkin. Chunki turli til, madaniyatlar o’zaro aloqaga kirishganda ma’nolar assimetriyasi yuzaga kelib, bo’shliq ko’zga tashlanadi. Demak “tarjima bu til kodining oddiy o’zgarishi emas, balki matnni boshqa madaniyat prizmasi orqali uni idrok etish uchun moslashtirish” [Sdobnikov:2007] ekanligini hisobga olish zarur. N.A.Fenenko lingvomadaniyat nuqtai nazaridan adaptatsiyaning o’rganib, asl matnni chet tilida qabul qiluvchi asliyat g’oyasini to’liq tushunishi uchun boshqa lingvomadaniy makonga ma’lum usullar yordamida moslashtirish [Fenenko:2001] deb tushuntirsa, Komissarovning ta’rifiga ko’ra, adaptatsiya – bu “asl mazmuni tarjima matnida boshqa shaklda ifodalangan, tillararo muloqotning vazifasi” [Komissarov:1990]. Ya’ni tarjima matni asliyatning ekvivalentiga erishishi uchun berilgan so’zni boshqa shakldagi ifodasidir.

Shunday ekan, adaptatsiya nafaqat tillar assimetriyasi, balki madaniyatlar assimetriasida ham qo’llaniladi. Shu jihatdan olib qaralsa, adaptatsiya matnning ma’no tizimini saqlab qolish, shunga o’xshash kommunikativ ta’sirga erishish uchun aynan zarur bo’lib chiqadi. Tarjimada pragmatik adaptatsiyaning e’tiborga olmasdan tarjima qilish esa ba’zida tarjima matni o’quvchisida asl matn muallifi nazarda tutmagan mutlaqo boshqa assotsiatsiyaning keltirib chiqarishi mumkin. Tarjimon tarjimada nimani saqlash, nimani e’tiborga olmaslik yoki o’zgartirishi mumkinligi haqida ish jarayonida tarjimaning asosiy tamoyillari asosida qaror qabul qiladi. Agar u asliyatning butunligini, lisoniy shaklini takrorlamoqchi bo’lsa, metaforani metafora bilan, epitetni esa epitet bilan tarjima qilishi lozim. Shunday ekan, tarjimada adaptatsiyaning e’tiborga olmasdan tarjima qilishlik ba’zida tarjima matni o’quvchisida asl matn muallifi nazarda tutmagan mutlaqo boshqa assotsiatsiyaning keltirib chiqarishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Гарбовский Н.К. Теория перевода. – М., 2007. С. 395.
2. Демецкая В.В. Определения понятие адаптация в рамках теории коммуникации и переврдоведения. URL: https://sn-philol.cfuv.ru/wp-content/uploads/2016/12/demetskaya_19.pdf (Мурожаат қилинган сана: 12.03.2025).
3. Ё. Исҳоқов. Зуллisonайнлик ва таржима (Садриддин Айний ижоди мисолида) // Таржима санъати: Мақолалар тўплами. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1980. Б. 125 – 126.
4. Комиссаров В.Н. Теория перевода (лингвистические аспекты). – М., 1990. С. 221.
5. Сдобников В.В., Петрова О.В. Теория перевода. – М.: АСТ: Восток–Запад, 2007. С. 165 – 169.
6. Федоров А.В. Основы общей теории переводов (лингвистические аспекты). – М. и СПб., 2002. С. 15.
7. Bastin G.L. Adaptation // Routledge encyclopedia of translation studies / edited by Mona Baker and Gabriela Saldanha. 2nd ed. Taylor & Francis e-Library, 2005. P. 4-5.

Ilmiy-metodik elektron jurnal

TAHRIR HAY'ATI:

Nizomiddin Mahmudov, Yorqinjon Odilov,
Jabbor Eshonqulov, Baxtiyor Daniyarov,
Abdurahim Nosirov, To'liq Saydaliyev,
Barno Buranova, Zulxumor Mirzayeva,
Qozoqboy Yo'ldoshev, Bahodir Jovliyev,
Salima Jumayeva, Qayum Baymirov,
Manzar Abdulxayrov, Alijon Safarov,
Husniddin Norqulov, Odiljon Boynazarov,
Madina Nuriddinova, Barno Kadirova,
Nargiza Mirzayeva, Guli Shukurova,
Yuldosh Raxmatov, Ramziddin Abdusatorov,
Feruz Manukyan, Gulchexra Keldiyorova,
Gulsanam Xolikulova, Komiljon Qarshiyev,
Svetlana Umirova, Xolmo'min Fayzullayev,
Nilufar Namazova, Dilbar Niyazova,
Sayyora Halimova, Shaxnoza Yunusova,
Nigoraxon Ro'zibayeva, Tadjixon Sabitova,
Oqila To'raqulova.

Bosh muharrir:

Nargiza Berdiyeva

Muharrirlar:

Bibimariyam Rahmonova,
Shabnam G'aniyeva, Bonu Do'smatova

Sahifalovchi:

Rustambek Yusupov

Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi 30-uy.

Telefonlar:

(93) 759-43-66, (77) 003-34-33,
(94) 095-96-22, (90) 288-32-92.

E-mail: tilvaadabiyotuz@gmail.com

Axborot hamkorimiz:

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI
ilmiy-metodik jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va
innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya
komissiyasi Rayosatining 2023-yil 3-iyundagi
338/6-sonli qarori bilan Filologiya, Pedagogika
hamda Psixologiya fanlari bo'yicha doktorlik
dissertatsiyalari (PhD, DSc) asosiy ilmiy natijalarini
chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrdir.
<https://oak.uz/pages/4802>



MUNDARIJA

DOLZARB MAVZU

Farangiz Umarova. Zarina Islamova. Zamonaviy qiyosiy adabiyotshunoslikning dolzarb muammolari	3
Saodat Eshpulatova. Shoir qalbli munaqqid	6
Oqiljon Mavlonov. Navoiy ma'naviy olamiga yo'l	9
Nilufar Namazova. Matbuotning yashovchanlik immuniteti	12

TILSHUNOSLIK

Sharifaxon Iskandarova. Mushtariy Begmuhammadova. Holat fe'llarining semantik tuzilmasi: o'zbek va ingliz tillarining solishtirma tahlili	15
Xavasxon Shokirova. Presuppozitsiya va tagma'no	17
Akbarjon Xasanov. Semantik asimmetriya masalasi va unga antroposentrik yondashuv	21
D.A.Islamova. S.A.Xayrullayeva. Ravish so'z turkumida ko'chish hollari	24
Zumrad Gafarova. Matnlar korpusi tilshunoslik tadqiqotlari obyekti sifatida	27
Kamolaxon Oripova. "Konsept" lingvokulturologik tahlilning obyekti sifatida	30
Dildora Nizomiddinova. Muzayana Xolmatova. Xalq tarixini o'rganishda etnotoponimlarning ahamiyati	32

ADABIYOTSHUNOSLIK

Gulnoza Kurbonova. Ruxshona Erkinova. Yapon bolalar adabiyotida "Koinot" konseptining qiyosiy tahlili	36
Oydin Tuychiyeva. Faxriy Hiraviyning "Ravzat us-salotin" tazkirasida Bahromgur, Rudakiy va Sulton Sanjarlar timsoli	40

Nigora Haytaliyeva. O'zbek shoiralari she'riyatida obraz va ramziylik.....	43
Наталья Петрухина. Специфика воплощения родового карамазовского начала в романе Достоевского «Братья Карамазовы».....	47
Насиба Ниязова. Узбекская лирика военной поры в творческой палитре Гафура Гуляма	49
Mukhlisakhon Okhunova. The concept of the human in novel “Night and day” by Cho'lpon.....	52

ILG'OR PEDAGOGIK TEKNOLOGIYA

Muxlisa Sabirova. Internet matnlarida varvarizmlarning qo'llanishi.....	56
Shirin Sadikova. Shirin Sharasulova. O'zbek tilini intensiv o'qitishda tinglab tushunish ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan matnlarni tanlash va qo'llash usullari.....	58
Shaxista Buranova. O'quvchilar nutqidagi mahalliy sheva sharoiti ta'siridagi xatolar tahlili va bartaraf etish usullari	61
Rayxona Tillayeva. Adabiy ta'lim jarayonida badiiy matn ustida ishlash metodologiyasini takomillashtirish	64
Malika Ergasheva. Jismoniy imkoniyati cheklangan o'quvchilarga ingliz tilini o'qitishning samarali usullari	67
Shaxobiddin Abdullayev. TikTok, twitter, instagram: ularning zamonaviy tildagi rolini taqqoslash	69
Малуда Исманова. Муслима Жабборова. Особенности работы с билингвами при изучении русского языка	71
Руниза Шакирова. Сравнительный анализ традиционных и вербально- графических технологий обучения языку	75
Регина Раджапова. Практическое применение приемов «диаграмма венна», «двухчастный дневник» при изучении темы «стилистическая система русского языка».....	78
Xolbuta Xujanov. Boshlang'ich sinflarda ona tilini o'qitish metodikasi	81
Manzura Orziyeva. Dars samaradorligini oshirishda interfaol usullarning o'рни	83
Musharraf Abdulxayeva. Yulya Lutfullina. Bo'lajak o'qituvchilarda yozma nutqni shakllantirishda ona tili o'qitish metodikasi fanining o'рни	86

Tadqiqotlar

Mohira Umarova. O'zbek tilidagi realiyalar hamda ularning urdu tilidagi tarjimalarda ifodalanishi.....	89
Ravshanjon Madumarov. O'zbek tilida tanbehni ifodalovchi nolisoniy vositalar	91
Shaxlo Qurbonova. Kelajak va ezgulikka ishonchning yo'qolishi – “Yo'qotilgan avlod”ning eng mudhish fojiasi sifatida	93
Ra'no Rajabova. Alla janri stilizatsiyasi.....	96
Gavhar Rustamova. Daraxtlar bilan bog'liq obrazlarning diniy-ilohiy manbalardagi ifodasi	98
Barnoxon Shamsiyeva. Tarjimada adaptatsiyaga murojaat.....	100
Muyassar Navruzova. Kasallik va tibbiyot bilan bog'liq toponimlarning til va madaniyat nuqtayi nazaridan tadqiqi xususida.....	102
Dilnoza Sobirova. Tibbiyotga oid reklama matnlarida uslubiy figuralarning o'рни	105
Nodir Ramazonov. Gulbika Sultanova. “Shum bola” asarining nashrlararo ba'zi leksik va uslubiy tafovutlari.....	108
Alisher Parmonov. Kinoyaning nutqiy faoliyat elementi sifatidagi umumiy xususiyatlari	111
Shahnoza Muhammadiyeva. Milliy uyg'onish davri adabiyoti rivojida Abdulla Avloniy ijodining ahamiyati.....	114
Nargiza Uzoqova. Abdulla Avloniy ijodida ilm talqini.....	116
Guli Qodirova. Abdulla Avloniy she'riyatini 5-sinf o'quvchilariga o'rgatishning zamonaviy usullari: “Vatan” she'ri misolida	118
Dilso'z Tursunova. Gadoiy she'riyatining vazn xususiyati.....	120
Dilfuzaxon Saidqodirova. Terminning so'z sifatidagi leksik ma'nosi.....	122
Saida Mamatkulova. Zebogul Nazirjonova. Inligiz tilida grammatik normadan chetga chiqishlar: lingvistik tahlil.....	124
Дилбар Дуйсабаева. «Қара» концептісінің элеуметтік-мәдени метафорикасы.....	126
Амина Фаттахова. Академическое письмо как фактор формирования научной идентичности.....	129